

## **MAGNIY VA UNING BIRIKMALARINING FIZIK VA KIMYOVIY TAHLILI**

Shodmonova Dilnoza Habib qizi  
Tabiiy fanlar fakulteti talabasi

### **Annotatsiya**

mazkur maqolada magniy va uning birikmalari, xossalari tahlili yuzasidan so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** magniy, birikma, kimyo, fizik, tahlili, kompleksonometrik, oksid, kislota , metal , atom.

**Kimyo** — moddalarning tuzilishi va o‘zgarishini o‘rganadigan fan. Kimyo boshqa fanlar qatori inson faoliyatining mahsuli sifatida vujudga kelib, tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zaruriy mahsulotlar ishlab chiqarish, biridan ikkinchisini hosil qilish va, nihoyat, turli hodisalar sirlarini bilish maqsadida ro‘yobga chiqdi. Odamlar qadimda rudalardan metallarni ajratib olish, turli xil qotishmalar tayyorlash va qo‘llash, jumladan, shisha tayyorlash va undan turli maqsadlarda foydalanishni bilganlar. Qadimgi Misrda kimyoviy jarayonlarga asoslangan hunarmandchilik rivojlanganligi ma’lum. Pishiq, charm tayyorlash, uni bo‘yash, rangli shisha olish, o‘simliklardan dori-darmon va xushbo‘y hidli moddalar tayyorlash, sopol buyumlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. O‘scha davrlarda kimyoviy mahsulotlar Hindiston, Xitoy va O‘rta Osiyoda ham ishlab chiqarilgan. „Kimyoi hunar“ sohibi bo‘lgan kimyogar bir moddadan ikkinchi mahsulotni tayyorlash ishi bilan shug‘ullangan.

Bugungi kunda ham kimyo yo’naliishida turli tadqiqotlqr qilinmoqda. Olib borilayotgan tadqiqodalardan magniy birikmasining fizik va kimyoviy xossalari ko‘pchilik olimlarning e’tibor markazida .

**Magniy** (Magnesium), Mg — Mendeleyev davriy sistemasining II guruhiba mansub kimyoviy element; ishkoriy - yer metallarga kiradi. Tartib rakami 12, atom massasi 24,305. Tabiiy Magniy 3 ta barqaror izotopdan iborat. 24Mg (78,60%), 25Mg (10,11%), 26Mg (11,29%). Uchta sun’iy radioaktiv izotopi (23Mg, 27Mg, 28Mg) olingan. Magniyni 1808 i. dastlab ingliz fizigi Magniy Devi amalgama holida olgan. 1829-yilda fransuz kimyogari Magniy Byussi magniy xloridga kaliy bug‘i ta’sir ettirib, Magniyni metall holida ajratib olgan. Magniy massa jihatidan yer po‘stining 2,35% ni tashkil qiladi. Magniyning 100 dan ortiq minerallari bo‘lib, ulardan



## Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11<sup>th</sup> January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

dolomit, forsterit yoki olivin, magnezii, karnallit va boshqa ahamiyatlidir. Magniyning birikmalari asosan kompleksonometrik usul bo'yicha anaqlanadi. Magniy oksidi , magniy gidroksikarbonatlarni aniqlashda , avval ularni sulfat yoki xlorid kislotalar yordamida eruvchan tuzga o'tkazib titrlanadi. Kompleksonometrik usul bo'yicha aniqlashda, ma'lum miqdordagi preparat eritmasi ammiakli buffer eritmasi va bir necha tomchi maxsus indikatori ishtirokida trillion B ning 0,05 mol/l cho'kma ajratib olinib sovuq ammoniy gidrooksid eritmasi bilan filtrlanadi.

### Magniyning kimyoviy xossalari:

#### Oddiy moddaning ko'rinishi:



yengil, yumshoq, oq kumush rang metal

Atom xossalari

Nomi, belgi, raqami → Magniy (Mg), 12

Atom massasi → you 24,307 m.a.b. (g/mol);

Elektron konfiguratsiyasi → [Ne] 3s 2

Atom radiusi → 160 pm

Kimyoviy xossalari

Kovalent radius → 136 pm

Ion radiusi → 66 (+ 2e) pm

Elektrmanfiyligi → 1.61 (poling shkalasi bo'yicha)

Oksidlanish darajasi → 0; +2

Ionlanish energiyasi → 577,5 kJ/mol; (5,984 eV)



**Oddiy moddaning termodinamik xususiyatlari:**

Termodinamik fazalar → Qattiq modda

Zichlik ( n.sh. da ) → 1,738 g / sm<sup>3</sup>

Erish harorati → 650 °C (923 K)

Qaynatish harorati → 1090 °C (1363 K)

**Magniyning turli birikmalaridan quydagи sohalarda ishlataladi .**

U yengil va ultra yengil quyma qotishmalarini ishlab chiqarish uchun (samolyotsozlik, avtomobilsozlik), shuningdek, yoritish va yoqish raketalarini ishlab chiqarish uchun pirotexnika va harbiy soxalarda qo'llaniladi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab magniy sof shaklda va krimniy temir bilan qotishmasi tarkibida – ferrosilikomagniy, cho'yan ishlab chiqarishda keng qo'laniqdi, chunki u cho'yandagi uglerod formasiga tasir qiladi. Bu esa cho'yanga yangi qobiliyalar beradi.

**Harbiy sohada**

Magniyning oq, ko'r-ko'rona alanga bilan yonish xususiyati harbiy texnologiyada yoritish va signal beruvchi raketalar, izlovchi o'qlar va yoqish bombalarini ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

**Dori-darmon**

Magniy organizmning barcha to'qimalarida mavjud bo'lgan va hujayralarning normal ishlashi uchun zarur bo'lgan hayotiy elementdir. Ko'pgina metabolik reaktsiyalarda , asab impulslarini uzatishni boshqarishda va mushaklarning qisqarishida qatnashadi, spazmolitik va antitrombosit ta'sir ko'rsatadi. Tibbiyotda an'anaviy ravishda kardiyologiya , nevrologiya, gastroenterologiyada magniy oksidi va tuzlari ( asparkam , magniy sulfat , magniy sitrat ) ishlataladi. Shu bilan birga, magniy tuzlarini kardiologiyada qondagi magniy ionlarining normal darajasida qo'llash etarli darajada asoslanmagan.